

References:

Макаев, Английская диалектология, М. 1980, с. 61.

«Словарь иностранных слов», Государственное издательство иностранных и национальных словарей, 1956, с. 222.

Allen, Harold B. and Michael D. Linn (eds) 1986. *Dialect and language variation*. Orlando:

FL.Anderson, Peter M. 1987. *A structural atlas of the English dialects*. London. Auer, Peter, F.

Hinskens and Paul Kerswill (eds) 2005. *Dialect change: Convergence and divergence in European languages*. Cambridge: University Press Bailey, Richard and Manfred Görlach (eds)

1982. *English as a world language*. Ann Arbor: University of Michigan Press Bauer, Laurie

2002. *An introduction to international varieties of English*. Edinburgh: University Press. Brown,

Gillian 1972. *Phonological rules and dialect variation*. Cambridge: University Press. Burghardt,

Lorraine H. (ed.) 1971. *Dialectology: Problems and perspectives*. Knoxville: TE Cheshire, Jenny

and Dieter Stein (eds) 1997. *Taming the vernacular. From dialect to written standard language*. London: Longman.

E-resources:

<http://www.lel.ed.ac.uk/~wmaguire/Geordie.html>

⁴ From Wikipedia, the free encyclopedia

⁵ Clive P L Young's Scots Haunbuik at http://www.electricscotland.com/tourist/sh_gram.htm for more detail

⁶ <http://www.cs.stir.ac.uk/~kjt/general/scots.html#Pronunciation>

⁷<http://www.irelandseye.com/aarticles/culture/talk/irishguide/histir.shtm#:~:text=Irish%20developed%20from%20one%20of,is%20sometimes%20difficult%20to%20obtain.>

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR PRAGMATIKASI

Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna

Buxoro davlat universiteti, Ingliz tilshunosligi

kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Tel.:914486759 gmail: gadoyevamavlyuda59gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida somatik frazeologik birliklarning pragmatikasi tahlili olib borilgan. Somatik frazeologik birliklarning mukammal tahlili uchun frazeologik birliklar mohiyatining tarkibiy tuzulishini, ularning pragmatikasi jihatidan tashkil topishidagi o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: tana a'zolari, somatik frazeologik birliklar, somatism, bosh, ko'z, qo'l, barmoq, burun.

ПРАГМАТИКА СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Гадоева Мавлюда Ибрагимовна

Бухарский государственный университет,

Кандидат филологических наук, доцент кафедры Английского языкознания
Tel.:914486759 gmail: gadoyevamavlyuda59gmail.com.

Аннотация: Данная статья посвящена прагматике соматических фразеологизмов в английском и узбекском языках. Для тщательного анализа соматических фразеологизмов выявляется структурная структура сущности фразеологизмов, особенности их прагматической организации.

Ключевые слова: части тело, соматические фразеологические единицы, соматизмы, голова, глаза, рука, палец, нос.

PRAGMATICS OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Gadoeva Mavlyuda Ibragimovna
Bukhara State University

Candidat of philological science, docent of the English linguistics department
Tel.:914486759 gmail: gadoyevamavlyuda59gmail.com.

Annotation: This article devoted to the pragmatics of somatic phraseological units in the English and Uzbek languages. For a thorough analysis of somatic phraseological units, the structural structure of the essence of phraseological units, the peculiarities of their pragmatic organization are identified.

Key words: parts of the body, somatic phraseological units, somatizms, head, eye, hand, finger, nose.

Kirish. Somatik frazeologik birliklarni to'liq tahlil qilish uchun frazeologik birliklar mohiyatining tarkibiy tuzulishini, ularni semantik jihatdan tashkil topishidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniq tasavvur qilish zarur.

Tilga xos material ustida olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi guruhlarini aniqlash imkonini berdi:

1) somatik frazeologik birliklar ma'no jihatidan bir-biriga mos keladi, biroq frazeologik birliklar tarkibida turli somatizmlar – tana a'zolari qismlari qo'llaniladi;

2) somatik frazeologik birliklarda bir xil somatizmlar qo'llaniladi va bir xil ma'no kasb etadi;

3) somatik frazeologik birliklar turli ma'no kasb etadi, biroq bir xil somatizmlar qo'llaniladi.

Guruhlarga ajratish bo'yicha ma'lumotlarni yanada to'liqroq tahlil qilamiz:

a) frazeologik birliklar ma'no jihatidan mos keladi, biroq turli tana a'zolari qismlari - somatizmlar qo'llaniladi. Frazeologik birliklarning boshqa tematik guruhlaridan farqli shundaki, somatik frazeologik birliklar xilma-xildir, bu esa turli xalqlarning yagona tafakkurga egaligidan dalolat beradi, bir xil ma'noga ega tana a'zolari qismlari - somatik frazeologik birliklar juda ko'p, biroq ularning tarkibida turli somatizmlar qo'llaniladi.

Asosiy qism. Har bir xalqning tana a'zolari qismlari - somatizmlar yoki bu qismlari bilan bog'liq tasavvuri mavjud.

Masalan, Ingliz tilida —*head* somatizmi ko`pincha rahbarlik, rahnamolik ma`nosida qo`llaniladi, masalan quyidagi frazeologik birliklarlarda:

“better be the head of a dog /ass than the tail of a lion/ horse” - ;

I think you should look for another job because you'll never get a prominent position at this big company. Better be the head of a dog than the tail of a lion, you know?

Низомжон бошини кўтариб гуруҳ билан занурди. (Said Ahmad Ufq. 462).

“carry one’s head high” – boshini yuqori tutmoq:

I know you're unhappy that you lost, but you should hold your head high and be proud of all you accomplished this season. No matter the outcome, they can hold their heads up high that they did a good job on this.

Chunki ikkinchi guruhni ilmiy rahbari martabasi baland odam, o`zim bo`lsam deydi. Boshqalarni bo`lishini xohlamaydi. (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar, 122). Qo`y go`sht. Ayolga ayting, kattalarbop ovqat qilsin. Yuqoridan odam bor. Tag`in, bera solib qochmang, go`shtni maydalab bering. (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar, 104). Низомжон бошини кўтариб гуруҳ билан занурди. (Said Ahmad, Ufq, 462).

“knock off smb’s head” – kimdandir o`zib ketish, birovdan ustun kelish.

If you insult me like that again, I'll knock your head off! That football nearly knocked my head off. I'm glad I ducked in time!

Невараси бошида сават билан ўтган-кетганга анграйиб гоҳ орқада қолади, гоҳ ундан ўзиб кетади. (Said Ahmad, Ufq, 459) Хеч ким дунёга устун бўлмайди (Said Ahmad, Ufq, 198).

Bunga misol tariqasida quyidagi frazeologik birliklar xizmat qilishi mumkin:

at the head: to be at the head of the list -ro`yxatda birinchi bo`lish;

Хар ойнинг бошида опаси бориб, дадам очдан ўлапти, қари отангни шундоқ зор қақшатиб қўясанми, деб тонган-тутганини юлиб келади. (Said Ahmad, Ufq, 668).

to go to the fountain head -eng katta boshliqqa murojaat qilish.

Another several decades go by as the Fountainheads and the humans co-exist. Yigirma millionni bosh-boshliqlaringdan boshlab kamaytiramiz! Bosh-boshlaringdan boshlab kamaytiramiz! Bosh-boshlaringdan boshlab kamaytiramiz! (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar, 189)

O`zbek tilida —*bosh* somatizmi ko`pincha —*turmushga chiqish* ma`nosida qo`llaniladi, masalan bunga quyidagi somatik frazeologik birliklarni keltirish mumkin: —*boshi bog`liq*.

Саодатка бир йилдан бери ҳар кун деярлик совчилар қатнаш, кампир ҳаммасига ҳам боши боглиқ, деб жавоб бериб келар экан (А.Қодирий, Ўтган кунлар, 115) .

Ushbu mavzuga yorqin misol bo`lib ingliz tilidagi —*four eyes see more than two* frazeologik birligi, o`zbek tilidagi —*bitta bosh yaxshi, ikkitasi undan ham yaxshi* misollari hisoblanadi.

Observation by two people is better than by one alone.

Бир калла yaxshi, ikkitasi undan ham yaxshi (Мақол)

Ushbu somatik frazeologik birliklar birgina ma`noni anglatadi, ikki odam tomonidan qabul qilingan qaror esa bir inson tomonidan qabul qilingan qarordan yaxshiroq ekanligini anglatadi, biroq barcha qiyoslanilayotgan tillarda turli somatizmlardan foydalaniladi.

Demak, ingliz tilida —*eyes* komponenti – to`rtta ko`z ikkitadan yaxshi (ko`radi) qo`llaniladi, o`zbek tilida —*bosh* komponentidan foydalaniladi.

Ya`ni ingliz tilida insonning ko`z bilan ko`rish qobiliyati muhimligi qayd qilingan bo`lsa, o`zbek tilida esa insonning fikrlash qobiliyati anglatadi.

Keyingi misollar ham bir xildagi mazmun va mohiyat borligidan dalolat beradi, ular bir-biridan turli somatizmlardan foydalanilishi orqali farq qiladi:

let somebody (something) slip through the fingers – qo`lidan chiqarmoq;

We had the cell guarded by three people, but still we let her slip through our fingers so mehow.

Йиқилишда қўлидан чиққан қозғоз парчаси шамол билан учиб бориб боши ёнига тушиди. (А.Қодирий, *Ўтган кунлар*, 95).

Barcha qiyoslanayotgan tillarda ushbu somatizm kimnidir anglatadi, kimnidir bartaraf qilib bo`lmaydigan xohishini tuyayotganligini bildiradi, bu esa ko`pincha salbiy ma`noda, masalan, kim bilandir urushmoq, kimnidir urmoq.

Biroq ingliz tilida o`zbek tilidan farqli o`laroq, —qo`l somatizmi qo`llanilgan o`rinlarda, —*fingers* komponentidan foydalaniladi.

Before one`s nose – ko`zi (boshi) boqqan tomonga ketmoq.

“She ran straight before her nose, till she could run no longer” (R.Stevenson, —*Treasure Island*, ch.13). Боласини кўтарди-да, йўлакка чиқиб, боши оққан томонга кета бошлади (А.Коржавов, 121);

It`s written all over his face. - Basharasida yozilgan.

Disappointment was written all over her face. It`s written all over his face.

Ҳозир Эшон қишлоқда ҳам у кишини икки отлиқ сўради. Башарасидан бу ернинг одамига ўхшамайди. Узоқдан келгани шундоққина билиниб турипти. (Said Ahmad, *Ufq*, 121).

1. Burn smb`s fingers - Og`zini kuydirib olmoq.
2. Follow smb. at foot - Izidan bormoq.
3. Under smb`s thumb - Kimningdir qo`lida.
4. In smb`s face - Yuziga aytmoq.
5. Thumbs up! - Barakalla!
6. Have an eye to - Ko`zining ostiga olib qo`ymoq
7. Have a finger in smth. - Qo`li bor bo`lmoq.
8. An oily tongue - Og`zini moylamoq.
9. Before smb`s face – Birovning ko`zi oldida.
10. A big head - Лоб широк, да мозгу мало.
11. Up to the eye – qulog`igacha
12. Язык без костей Tilning suyagi yo`q
13. In the public eye - Hammaning ko`zi oldida
14. Have one`s heart in one`s mouth – yuragi chiqib ketmoq, qo`rqmoq.
15. Keep one`s eyes open – hushyor bo`lmoq.
16. Fed to the teeth – bo`g`zigacha to`q.
17. Escape smb`s lips - Tilidan chiqib ketmoq.
18. Wipe smb`s face - Burnini erga ishqalamoq.
19. Sleep with one`s eyes open - Qulog`ini ding qilib uxlamog.

v) bir xil somatizmlar, bir xil ma`nolar. Ko`pgina somatik frazeologik birliklar har xildir. Ular ko`pgina xalq va tillarga xos, shuning uchun bir xil ma`noga ega bir xil somatizmlar qo`llanilgan somatik frazeologik birliklar ko`p.

Masalan: “eye for eye, tooth for tooth” – “ko`z-ko`zga, tish-tishga” frazeologik birligini olaylik. Ingliz tilidagi bu kabi frazeologik birliklarning mavjudligi ushbu frazeologik

birlik injilga oid etimologiya bilan bog'liq, biroq o'zbek tilida ushbu ma'noga ega frazeologik birliklar ham uchraydi, biroq u —*boshga bosh* – aynan o'rniga-o'rin, tengma-teng, e'vaziga frazeologizmi tarkibida boshqa komponentni qo'llash orqali yuzaga keladi. Shunisi diqqatga sazovorki, frazeologik birliklar ikkita ma'noga ega, birinchisi ingliz tilidagi ekvivalentga mos keladi, ikkinchisi esa, —biror narsani *bab-barobar teng bo'lish* ma'nosini anglatadi, ya'ni qimmatbaho biror narsa evaziga xuddi shunday qiymatga ega bo'lgan narsa bilan almashtirishdan iborat.

Ko'pincha ana shunday somatik frazeologik birliklarning ko'p qismi bir tilda o'z o'xshashiga ega bo'ladi. Ya'ni ingliz tilidagi somatik frazeologik birliklar ingliz tilidagi, ingliz esa o'zbek tilidagi somatik frazeologik birliklarga mos kelishi mumkin,

“keep one's tongue between one's teeth” – tilni tiymoq.

But he knew his place and managed to keep his tongue between his teeth. (J.London. —The Mutiny of the Elsinore);

to lend / give a hand – qarz bermok/yordam qo'lini cho'zmoq.

You've got both arms full of groceries. Can I give you a hand opening the door? I'm so glad you lent me a hand with the cleaning—I never would've finished on time.

“gain the upper hand” – o'yinda ustun bo'lmoq:

Police have gained the upper hand over the drug dealers in the area.

get somebody under hand- qo'lga olmoq.

I've mostly stopped acting, but I will do a play occasionally, just to get my hand in.

Tahlillarimiz natijasi quyidagicha:

Armed to the teeth - Tish-tirnog'igacha qurollangan

Poke one's nose into smb.s affairs - Birovning ishiga burun suqmoq

Catch by the throat - Bo'g'izdan olmoq

Under smb.s nose - Burnining tagida

Tooth and nail - Tish tirnog'i bilan

Have an eye to - Ko'zining ostiga olib qo'yimoq

From under smb's nose - Burnining tagidan

Have a hand in smth. - Biror ishda qo'li bo'lmoq

Wipe out (from the Earth)- Er yuzidan yo'qotmoq

Pixie legs - Bitta oyog'ing bu erda, ikkinchisi u erda:

At heart - Ichida

A heart of stone - Yuragi tosh

A big heart - Yuragi keng, ichi keng

Break smb's heart - Ko'nglini sindirmoq, ko'ngliga tegish

Kind heart - Yuragi yumshoq

Not worse a pennies- Tirnoqqa arzimaydi

From the bottom of one's heart - Chin qalbdan

Wooden head - O'tmas kalla

Wash one's hand - Qo'lini yuvmoq

Have long hands - Qo'li uzun bo'lmoq

One hand washes another - Qo'l qo'lini yuvadi

Fly in the face - Yuziga sapchimoq

Put smb. on his feet - Oyoqqa qo'yimoq

Cut each other's throat -Bo'g'izdan olmoq

s) Turli ma'noga ega, biroq tarkibida bir xil somatizm qo'llanilgan frazeologik birliklar.

Bunday somatik frazeologik birliklar boshqalariga nisbatan uncha ko'p emas.

At hand - qo'l ostida. Garchi ushbu frazeologik birlik o'zbek tilida o'zining ekvivalentlariga ega bo'lsada, biroq uning ma'nosi o'zbek tiliga mos kelmaydi.

When she stepped out on the fourth floor there was no one at hand, only great aisles of boxes piled to the ceiling. (Th.Dreiser, —Sister Carrie, 23) Some gentlemen were conferring close at hand, but took no notice of her. (Th.Dreiser, —Sister Carrie, 14)

O'zbek tilida —qo'l komponenti ham mos keladi, biroq o'zbek tilida —qo'l ostida iborasidagi ma'nosi umuman boshqa. U birovning rahbarligi ostida kimningdir ish olib borayotganini anglatadi: U Anvarning qo'l ostida ishlar edi.

O'zbek tilida ushbu frazeologik birlik quyidagi ma'noda qo'llaniladi: -“labini tishlamoq”.

Ingliz tilidagi “on foot” frazeologik birligi quyidagi ma'nolarga ega:

1) yayov; Yo'q, olib kelolmas ekanman, o'zlaring piyoda kelar ekansizlar (T.Murod, Otamdan Qolgan Dalalar, 92).

— 2) tirik, tiriklayin (so'yishga mo'ljallangan chorva mollari haqida); Shaharda tirik jon bo'ladi — guzar haydaydi. OQD 8 Yo'lda mafiyang daf'a qilib qolsa, manavi oyoq ostiga yotib ol! — dedi to'pponchalik. — Sen bizga tiriklayin keraksan! (T.Murod, Otamdan Qolgan Dalalar, 171)

3) ko'chma ma'nosi – harakatida.

— Ko'chma ma'noda “on foot” ro'y berayotgan harakatni(rejani) anglatadi:

Though he got very close up to his game, they were on foot before he saw them. I hear that plans are on foot to build a new school.

— Унинг бу ҳаракатидан қўтидор билан Офтоб ойим ажабсинишиб бир-бирларига қарашган эдилар (А.Қодирий, Ўтган кунлар, 158).

Xulosa. Yuqorida qayd qilingan tahlillardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, somatik frazeologik birliklarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin.

Eng ko'p ma'noga ega bo'lgan guruhni birinchi guruh tashkil qiladi –mos ma'nodagi frazeologik birlik bo'lib, biroq frazeologik birlik tarkibida turli tana a'zolar qismlari - somatizmlar qo'llaniladi.

Haqiqatan ham, tillarning birida —eyes somatizmi qo'llanilishi mumkin, biroq u boshqa tilga tarjima qilinganda mazmun o'zgarmagan holda boshqa somatizm bilan almashtirilishi mumkin.

Ko'pincha somatik frazeologik birliklar har ikkala qiyoslanayotgan tillarda ham mos kelishi mumkin, uchinchi bir tilda esa o'xshashi bo'lmasligi yoki tana a'zolarining qismlarisiz - somatizm komponentisiz qo'llaniladi.

Ikkinchi guruhga bir xil ma'noga ega bo'lgan somatizmlar qo'llaniladigan frazeologik birliklarga taalluqli bo'lib, ular bir xil ma'noga ega bo'ladi, shuningdek, ular ko'pchilikni tashkil qilishi bilan farq qiladi, bu esa til sohiblariga ega xalqlarda insoniy tafakkurning umumiyligidan dalolat beradi. Ko'pincha ushbu frazeologik birliklar o'zlashtirilgan sanaladi, bu esa ularning ko'pgina tillarda ishtirok etishini ta'minlaydi.

Uchinchi guruhga turli ma'noli somatik frazeologik birliklar kiradi, biroq ularda bir xil somatizm qo'llaniladi, ular nisbatan kam uchraydi va odatda tillarning birida somatizm komponentini qayta anglash orqali kuzatiladi. Shuni aytish mumkinki somatik frazeologik birliklarning mukammal tahlili uchun frazeologik birliklar mohiyatining tarkibiy tuzulishini, ularning pragmatikasi jihatidan tashkil topishidagi o'ziga xos xususiyatlarni tahlil qilib, aniqlas zarur.

Tilga xos material ustida olib borilgan tahlillar quyidagi guruhlarini aniqlash imkonini berdi. Somatik frazeologik birliklar ma'no jihatidan bir-biriga mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Богус З.А. Соматизмы в разносистемных языках: семантико словообразовательный и лингвокультурологический аспекты.- Автореф. дис..... канд. фил.наук.- Майкоп, Кабард.- Балканский ГУ, 2006.-26 с.
2. Долгополов Ю.А. Сопоставительный анализ соматической фразеологии: на материале немецкого и английского языков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Казань, 1973.
3. Исаев А. Соматические фразеологические единицы узбекского языка. Номзодлик диссертацияси. – Ташкент, 1976.
4. Irujo S. Steering Clear: Avoidance in the Production of Idioms. // IRAL. - 31, 3, 1993. - P. 205-219.
5. Jaeger, Leon. The Nature of Idioms: A Systematic Approach. Bern: Peter Lang, 1999. Print.
6. Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). – М.: Издательство 'Высшая школа', 1970. – 344 с
7. Мордкович Э.М. К вопросу о семантических полях соматических фразеологизмов. Новгород, 1972.
8. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2000. – 56 б.
9. Вакк Ф.В. О соматической фразеологии эстонского языка // Вопросы фразеологии и составления фразеологических словарей/Ф. Вакк. – Баку, 1968.

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA "O" SHAKLLAR TIZIMI

Dushayeva Gulbahor Dehqonovna

Guliston davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

[Tel:998972775498e-mail:gulbahordushayeva1978@gmail.com](mailto:gulbahordushayeva1978@gmail.com)

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilida "o" shakllar tizimining o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berilgan. Bunda ot so'z turkumidagi son kategoriyasi, sifatidagi oddiy daraja, miqdor son, fe'llarning tuslanishidagi III shaxsga tegishli jihatlar tadqiq etilgan. Turkiy tillarda nol (ø) morfema grammatik shakllar sirasida ustuvor mavqega ega ekanligi, nutqda voqelangan biror mustaqil leksema qo'shimchasiz bo'lishi mumkin emasligi haqida fikr yuritilgan. Moddiy qiyofali morfemasiz leksema nol qo'shimcha ekanligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.